

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya fani o'qituvchisi Xudoyorov Lochinbek Xonnazarovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi
2-kurs talabasi Malikov Mehrob Tutash o'g'li

NIL DARYOSI VA GEOGRAFIK JOYLASHUVINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada nil daryosi haqida umumiy ma'lumot berilgan. Nil suvining qishloq xo'jalikda ahamiyati va daryolar gidrologiyasi haqida fikr mulohazalar berilgan.

Annotation: this article provides an overview of the Nile River. Feedback has been given on the importance of Nile water in agriculture and the hydrology of rivers.

Kalit so'zlar: Nil daryosi Virunga tog'I, Koga va Albert ko'li, Myorchison sharshara, Bahr ul-G'azal, Bahr ul-Arab, Asva, Sabat, Delta, Birkat-Karun, gidrologiya.

Keywords: Nile river Virunga mountain, Koga and Albert Lake, Myorchison waterfall, Bahr ul-Ghazal, Bahr ul-Arab, Aswa, Sabat, Delta, Birkat-Karun, hydrology.

Nil (Hozirgi Misrliklar tilida Al-Bahr; Lotincha - Nilus, Yunoncha - Netilos; Inglizcha - Nile) Afrikadagi davlatlar bo'lgan Ruanda, Tanzaniya, Uganda, Sudan, Misr hududlaridan oqib o'tadi. Dunyodagi eng uzun daryolardan biri bo'lgan Nilning uzunligi *6671 km*, havzasining maydoni esa *2870 ming km²*. Daryoning boshlanish irmog'i Sharqiy Afrikadagi Oq Nil, Virunga tog'laridan, Kagera nomli irmog'i 3^0 j.k.dan boshlanib, Viktoriya ko'liga kelib quyiladi. Daryo mazkur ko'ldan *Viktoriya-Nil* nomi bilan oqib chiqadi. So'ng *Koga* va *Albert* ko'llaridan

o'tgach, dastlab *Albert-Nil*, so'ngra *Bahr ul-Jabal* ya'ni “**Tog' daryosi**” deb yuritiladi. *Viktoriya-Nil* daryosidan keyin *Kioga* ko'liga quyiladi. *Kioga* ko'lidan oqib o'tgach 40-50 metrgacha balandlikdan tushib o'tgach, ko'plab ostona va sharsharalar (*Myorchison sharsharasi* va *boshqalar*) ni hosil qilgan. *Sudan tekisligida* vodiysi botqoqlashgan, bu qismida daryo juda sekin oqadi. Suvning katta qismi bug'lanishga sarf bo'ladi.

Nil chapdan *Bahr ul-G'azal* va *Bahr ul-Arab* daryolari bilan qo'shilgach Oq Nil (*Bahr ul Ab'yaz*) nomini oladi. *Bahr ul Ab'yaz* sohillarida kiyiklar, tuyaqushlar, begimot hatto sherlar ham uchraydi. Yovvoyi hayvonlar ba'zan qishloq, hatto shahar aholisini bezovta qilib turadi. *Bahr ul Ab'yaz Xartum* shahrigacha chalacho'l va cho'l zonasidan oqadi. O'ngdan Asva, Sabat va Oq Nilning Tani ko'lidan oqib chiqadi. Ko'k Nil (*Bahr ul-Arroq*), **Atbara** kabi o'nlab irmoqlar qo'shilgan joyda Nil nomini olgan. Odatda daryolarning suvi quyiladigan joygacha ko'payib boraveradi, Nil daryosini esa oxirgacha, kamayib boradi. Xartum shahridan Asvongacha Nil daryosi oltita ostona hosil qilib oqadi.

Keyingi 3000 kmli masofada ya'ni Nil O'rta yer dengizga quyilguncha unga birorta ham irmoq kelib qo'shilmaydi. O'rta yer dengizga quyilish joyida katta delta hosil qilgan. Delta 24000 km^2 maydonni hosil qiladi. Delta katta kichik juda ko'p tarmoqlarga bo'lingan ko'llar mavjud. Ularni O'rta yer dengizdan tor, ensiz quruqlik *kokillar* ajralib turadi. Daryo suvining bir qismi *Ibrohimiya kanali Yusuf* tarmog'i orqali *Birkat-Karun* ko'liga quyiladi. Nildan chiqqan *Ismoiliya kanali* Suvash kanali sohilidagi aholi punktlarini, *Mahmudiya kanali Iskandariya shahrini* chuchuk suv bilan ta'minlaydi.

Nil suv rejimi mavsumlarga qarab keskin o'zgarib turadi. Asvon shahri yonida o'rtacha suv sarfi m^3/s . (maksimali $15000 \text{ m}^3/\text{s}$. Minimali $400-500 \text{ m}^3/\text{s}$.), quyilish joyida $2900 \text{ m}^3/\text{s}$. Nilning ekvator qismidagi havzasi yoz va qish mavsumlarida, Misr va Sudanning markaziy va shimoliy hududlarida yoz-kuz oylarida suvi ko'payadi. Daryoning quyi oqimida ayni jazirama yozda suv ko'payadi. To'linsuv davrining cho'qqisi *sentabr* oyiga to'g'ri keladi. O'rtacha

yillik oqim $73,1 \text{ km}^3$. Baland Asvon to'g'oni qurilgunga qadar daryo quyi oqimiga yiliga 62 mln. m^3 loyqa suv keltirgan. Nil suvi oqimini tartibga solib turish maqsadida *Asvon*, *baland Asvon* to'g'onlari, *Nag Hammadi*, *Ul-Fayyum*, *Ouen-Fols GESlari* qurilgan. Daryoning quylisht joyidan Asvon to'g'onigacha va o'rta qismlarida kema qatnaydi. Nil va uning irmoqlarida kema qatnaydigan qismining jami uzunligi 32 ming km . Daryo bo'yida Qohira, Iskandariya, Xartum va boshqa shaharlar joylashgan. Vatandoshimiz al-Farg'oniy IX-asrda birinchi bo'lib, Nil daryosi misolida suv sarfini o'lchaydigan *Nilometr* qurilmasini bunyod etgan.

Nil daryosining boshlanish joyida qayiqqa o'tirgan kishi har kuni 100 km yo'1 bosib o'tsa, daryoning deltasiga, Qohiraga esa ikki oydan keyingina yetib keladi. Nil daryosining suvidan asosan, Misrning shimolida yashovchi kishilargina bahramand bo'ladilar. Eramizdan oldingi V-asrda yashagan Yunon olimi *Geredot* «**Misr Nilning sovg'asidir**» degan. Nil vodiysi sug'oriladigan dehqonchilikda yiliga ikki marta hosil yig'iladi. Aholi yirik shoxli qora mollar, echki, qo'ylarni ko'paytiradilar. Nil daryosi va dengizlarda baliqqa boy bo'lgani uchun baliqchilik bilan shug'ullanadilar. Qadimgi madaniyat markazlaridan biri-Misr daryosi tufayligina vujudga kelgan.

Har yili kuzda, ya'ni oktabr-noyabrdagi Nil daryosi *40* kun davomida o'zanidan toshib oqadi. Toshqin paytida qishloqlar suv bosmasligi uchun ular nisbatan balandroq joylarga qurilgan. Toshqin paytida qishloqlardagi aholi bir-birlari bilan qayiqlar yordamida aloqa bog'laydi, shunga qaramay, Nil daryosining toshqindan aholi faqat xursand bo'ladi. Sababi suv qancha ko'p toshsa ekin hosili shuncha mo'l bo'ladi. Suv qaytganidan keyin yerlarida unumli loyqa qatlami qoladi. Dehqon (*Fallax*)lar ekin ekishga kirishadilar. Bahorda hosil yig'ishtirib olinganidan keyin yerlar yoz bo'yi yana qaqrab yotaveradi.

Taniqli gidrolog olim O.A. Spenglerning gidrologiya aniqrog'i, daryolar gidrologiyasiga oid ilk ma'lumotlar 6000 yil avval qadimgi Misrda paydo bo'lган. O'sha paytlardayoq misrliklar Nil daryosida oddiy hidrologik kuzatishlarni amalga oshirganlar. Ular hozirgi *Asvon* to'g'onidan 400 km yuqorida tog' qoyalarida Nil

daryosi suv sathini o'rganishni belgilaganlar, dunyoda bo'ladigan har yilgi toshqinlarning qaysi vaqtarda kuzatilganligini qayd etib borganlar. Keyinroq esa quyi Nildan 30 ga yaqin o'z davriga xos bo'lган hidrologik kuzatish joylari (**postlar**) tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'z ME. Birinchi jild. T.: 2000-yil
2. Baratov P. Sultonova N.B. Into Capital Group, 2008
3. Qiziqarli geografiya-T.: «Sharq», 2010
4. Hikmatov F. Yunusov G. Artikova F. Daryolar hidrologiyasi. T.:2017